



NAMANGAN VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

**Namangan viloyatida
xizmatlar sohasining
rivojlanishi**

**Press-relizni tayyorlash
uchun mas'ul:**

**Xizmatlar sohasi statistikasi
bo'limi**



2024- yil yanvar-aprel

Dastlabki ma'lumotlar




Xizmatlar sohasining mamlakat iqtisodiyotidagi ulushini oshirish, joylarda xizmatlar sohasidagi mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanish, xizmat turlarini kengaytirish va sifatini oshirish, tadbirkorlik subyektlarini yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021- yil 11- maydagi PQ-5113-son qarori bilan "O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirishning maqsadli parametrlari" tasdiqlandi va ularning monitoringini olib borish joriy etildi.

Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (2024- yil yanvar-aprel)




2 166,3
ming so'm

Aholi jon
boshiga
xizmatlar
hajmi



67,6%

Xizmatlar
sohasida
kichik
tadbirkorlik
ulushi



70,3%

Xizmatlar
sohasidagi
korxonalar va
tashkilotlar
ulushi


Xizmatlar hajmi

6 657,1
mlrd. so'm




Xizmatlar sohasi bu – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmat turlarini takror ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan umumlashtiruvchi kategoriyadir. Bu tijorat, professional va iste'mol xizmatlarini ko'rsatishga ixtisoslashgan mamlakatning iqtisodiy sektoridir.

Soni, birlikda





Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar
(1-may holatiga ko'ra)



Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soniga nisbatan ulushi

Xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar
(yanvar-aprel)

Soni, birlikda



Jami yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soniga nisbatan ulushi

Soni, birlikda

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari

(1- aprel holatiga ko'ra)


64,9%

2024

Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soniga nisbatan ulushi

2020

58,4%



Soni, birlikda

Xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari

(yanvar-aprel)

2024

65,4%


Jami yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soniga nisbatan ulushi

2020


58,6%



(yanvar-aprel)



Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining o'sishiga xizmat turlarining qo'shgan hissasi (2024- yil yanvar-aprel)



¹⁾ Shu va keyingi o'rinlarda 2020-2024- yillar ko'rsatkichlari yillik yangilangan ma'lumotlar asosida keltirilgan

Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari
(2024- yil yanvar-aprel)

Nomi	Hajmi, mlrd. so'mda	Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
Xizmatlar – jami	6 657,1	100,0	109,4
<i>shu jumladan:</i>			
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	345,7	5,2	114,7
Moliyaviy xizmatlar	988,4	14,9	87,8
Transport xizmatlari	1 379,7	20,7	119,7
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>	1 171,0	17,6	118,2
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	185,8	2,8	108,7
Savdo xizmatlari	2 039,0	30,6	110,5
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	162,2	2,4	108,3
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	365,1	5,5	149,2
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	145,0	2,2	110,2
Ijara xizmatlari	103,6	1,6	107,9
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	195,3	2,9	107,6
Shaxsiy xizmatlar	453,6	6,8	108,3
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	69,7	1,0	111,8
Boshqa xizmatlar	224,0	3,4	111,0

Tarmoqlar tasniflagichining belgilangan xalqaro standartlariga o'tish munosabati bilan O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirish Dasturining maqsadli parametrlariga kiritilgan xizmatlarning asosiy turlarini guruhlash, G dan S gacha bo'lgan bo'limlar bo'yicha xizmatlar bilan bog'liq bo'lgan qism va iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar) Statistik tasniflagichi (MST)ga ko'ra muvofiqlashtirildi.


**Tuman(shahar)lar kesimida xizmatlar sohasining asosiy
ko'rsatkichlari**
(2024- yil yanvar-aprel)

Hududlar nomi	Hajmi, mlrd. so'm	Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
Namangan viloyati	6 657,1	100	109,4
Namangan sh.	2 562,9	38,5	112,1
<i>tumanlar:</i>			
Mingbuloq	220,5	3,9	107,8
Kosonsoy	312,9	5,5	107,1
Namangan t.	305,7	5,4	107,3
Norin	246,0	4,4	109,4
Pop	367,0	6,5	108,2
To'raqo'rg'on	373,0	6,4	105,6
Uychi	379,2	6,7	107,7
Uchqo'rg'on	278,6	4,9	108,0
Chortoq	306,4	5,5	111,0
Chust	414,2	7,2	106,9
Yangiqo'rg'on	289,5	5,1	108,6

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi iste'molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslarga, shu jumladan norezidentlarga) qiymat vaqt davomida ko'rsatiladigan xizmatlar narxini aks ettiradi.




Aholi jon boshiga bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (yanvar-aprel)



Tuman(shahar)lar kesimida aholi jon boshiga xizmatlar hajmi (2024- yil yanvar-aprel)


● Hajmi, ming so'mda
■ O'sish sur'ati



Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari dinamikasi

(yanvar-aprel)

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining umumiy hajmida eng katta hajmni telekommunikatsiya xizmatlari egallaydi. **2024- yilning yanvar-aprel** oylarida ularning ulushi **91,7** foizni tashkil etdi.




Tuman(shahar)lar kesimida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2024- yil yanvar-aprel)

Tuman(shahar)	Xizmatlar hajmi	O'sish sur'ati
Yangiqo'rg'on	21,2	+110,8
Chust	29,4	+112,3
Chortoq	22,5	+113,1
Uchqo'rg'on	21,0	+116,2
Uychi	22,8	+108,1
To'raqo'rg'on	23,7	+113,9
Pop	24,7	+118,8
Norin	17,8	+109,7
Namangan	20,9	+108,9
Kosonsoy	23,1	+109,6
Mingbuloq	14,9	+113,3
Namangan sh.	103,7	+121,1


Moliyaviy xizmatlar dinamikasi

(yanvar-aprel)



Tuman(shahar)lar kesimida moliyaviy xizmatlar


(2024- yil yanvar-aprel)



— Hajmi, mlrd. so'mda ● O'sishi

Moliyaviy xizmatlar tarkibi

(2024- yil yanvar-aprel)




Moliyaviy xizmatlarning umumiy hajmida Namangan shahrining ulushi **69,6** foizni yoki **687,7** mlrd. so'mni tashkil etdi. **2023- yilning yanvar-aprel** oylariga nisbatan Namangan shahrida o'sish sur'ati **100,3** % ni tashkil etdi.

Transport xizmatlarining umumiy hajmida avtomobil transporti xizmatlari ustunlik qiladi – **84,9** foiz.

Namangan shahrida transport xizmatlari hajmi **418,9** mlrd. so'mni tashkil etgan. Mazkur hududda transport xizmatlari hajmining o'sish sur'ati **128,6** foizni tashkil etgan.

Transport xizmatlari dinamikasi (yanvar-aprel)




Tuman(shahar)lar kesimida transport xizmatlari

(2024- yil yanvar-aprel)




Xizmatlar hajmi

O'sish sur'ati




2024- yilning yanvar-aprel oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar ustunlik qildi – **83,3 foiz**.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar dinamikasi (yanvar-aprel)



Tuman(shahar)lar kesimida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar

(2024- yil yanvar-aprel)



■ Hajmi, mlrd. so'mda ● O'sishi

2024- yilning yanvar-aprel oylarida chakana savdoning ulushi savdo xizmatlari umumiy hajmining deyarli to'rt dan uch qismini, ya'ni **76,8** foizni tashkil etdi.



Savdo xizmatlari dinamikasi

(yanvar-aprel)



— *hajmi, mlrd. so'm* — *O'sishi, %*

Tuman(shahar)lar kesimida savdo xizmatlari

(2024- yil yanvar-aprel)


Namangan sh.	573,0	106,6
Yangiqo'rg'on	137,6	114,0
Chust	155,9	108,5
Chortoq	132,7	118,8
Uchqo'rg'on	110,2	112,7
Uychi	143,7	113,6
To'raqo'rg'on	153,8	102,8
Pop	148,6	113,5
Norin	118,1	113,6
Namangan	125,9	113,6
Kosonsoy	150,1	113,2
Mingbuloq	89,5	113,3

hajmi, mlrd. so'mda

o'sish sur'ati, % da


Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar dinamikasi

(yanvar-aprel)



Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarning umumiy hajmida shaxsiy yoki ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berish va boshqarish bo'yicha xizmatlar **91,2** foizni tashkil etdi.

Tuman(shahar)lar kesimida ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (2024- yil yanvar-aprel)




■ Hajmi, mlrd. so'mda

● O'sishi

Ta'lim sohasidagi xizmatlar dinamikasi

(yanvar-aprel)




Ta'lim sohasidagi xizmatlarning umumiy hajmida oliy ta'lim sohasidagi xizmatlar ustunlik qilib, **2024- yil yanvar-aprel** oylaridagi ulushi **56,5** foizni tashkil etdi.



Tuman(shahar)lar kesimida ta'lim sohasidagi xizmatlar


(2024- yil yanvar-aprel)




Hajmi, mlrd. so'mda O'sishi (kamavishi)

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar dinamikasi (yanvar-aprel)

2024- yilning yanvar-aprel oylarida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar umumiy hajmida shifoxona muassasalarining xizmatlari salmoqli qismini egallaydi. Ularning ulushi **43,1** foizni tashkil etdi.



Tuman(shahar)lar kesimida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (2024- yil yanvar-aprel)




■ Hajmi, mlrd. so'mda


● O'sishi

Ijara xizmatlari dinamikasi

(yanvar-aprel)



Tuman(shahar)lar kesimida ijara xizmatlari (2024- yil yanvar-aprel, aprel. so'mda)




2020- yilning yanvar-aprelga nisbatan o'rganilayotgan davrda ijara xizmatlari hajmi **53,1** mlrd. so'mga oshib, **103,6** mlrd. so'mga yetdi.

Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida **2024- yil yanvar-aprel** oylarida avtomobillar va yengil avto-transport vositalarini ijaraga berish xizmatlarining ulushi **55,6** foizni tashkil etdi.




Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari dinamikasi (yanvar-aprel)



Boshqa shaxsiy foydalanish buyumlari va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar jami kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlarining **27,6 %** ni tashkil etadi.


Tuman(shahar)lar kesimida kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari (2024- yil yanvar-aprel)



2023- yilning yanvar-apreliga nisbatan o'rganilayotgan davrda Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari hajmi **40,9** mlrd. so'mga oshib, **195,3** mlrd. so'mga yetdi.

Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida **2023- yil yanvar-aprel** oylarida Namangan shahrining ulushi **21,5 %** ni tashkil etdi.

Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar dinamikasi (yanvar-aprel)



Tuman(shahar)lar kesimida me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (2024- yil yanvar-aprel, mlrd. so'mda)



2020- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan **2024-yilning** ushbu oylarida me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi **32,1** mlrd. so'mga oshib, **69,7** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida Namangan shahrining ulushi **86,7 %** ni tashkil etdi.



Moliyaviy xizmatlar hajmi moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlar uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Transport xizmatlarining hajmi amaldagi narxlarda transport turlari bo'yicha transport jarayoniga (yuklarni tushirish va yuklash ishlari, transport-ekspeditorlik xizmatlari, transport xizmati va boshqalar) bevosita bog'liq bo'lgan tashish va boshqa faoliyatdan olingan daromad summasi sifatida aniqlanadi.

Avtomobil transporti xizmatlariga temir yo'lda tashishdan tashqari, quruqlikdagi yo'lovchi transportining boshqa xizmatlari, avtomobil transportida yuk tashish bo'yicha xizmatlar va ko'chish bo'yicha xizmatlar kiradi.

Savdo xizmatlari, shu jumladan, elektron savdo xizmatlari hajmi amaldagi narxlardagi yalpi daromad qiymati, ya'ni sotilgan tovarlarning sotib olish va sotish narxlari orasidagi farqining umumiy qiymati sifatida hisobga olinadi. Agar tovarlar boshqa shaxs manfaatlari uchun oldi-sotdi shartnomalari, komissiyalar yoki agentlik shartnomalari asosida sotilgan taqdirda, xizmatlar qiymati mukofot miqdori sifatida aks ettiriladi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi amaldagi narxlarda mazkur sohada xizmat ko'rsatuvchi korxonalarining daromadlari (sotishdan tushgan tushum miqdori) yig'indisi sifatida aniqlanadi.

Telekommunikatsiya xizmatlari bu – ovozli, matnli, ovozli yoki video ma'lumotlarni uzatish kabi telekommunikatsiya va boshqa tegishli xizmatlarni taqdim etish.

“Ta’lim” seksiyasi kunduzgi yoki sirtqi shaklda, shuningdek, Internet tarmog'i va pochta yozishmalari orqali xususiy yoki davlat tomonidan beriladigan turli darajadagi ta'limni va turli kasblarga o'rgatishni o'z ichiga oladi.

Bunga turli darajadagi muntazam maktab tizimi doirasida turli muassasalar tomonidan beriladigan ta'lim, shuningdek, kattalar uchun ta'lim (tayyorlash va qayta tayyorlash kurslari), ta'lim sohasida yordamchi faoliyat va shunga o'xshash boshqalar kiradi.

Ta'lim sohasidagi faoliyatni amalga oshirishda masofaviy o'qitish shaklini ham hisobga olgan holda ko'rsatilgan bozor xizmatlari (kontrakt) qiymati aks ettiriladi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu – sog'liqni saqlash muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam va sanitariya xizmatlari uchun ko'rsatiladigan bozor xizmatlarining qiymatidir.

Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarni ko'rsatishda ko'chmas mulk bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha xizmatlar qiymati, korxonaning shaxsiy, xo'jalik yuritish yoki tezkor boshqaruvidagi, shuningdek, ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlari aks ettiriladi.

Ijara xizmatlari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi mashinalar va asbob-uskunalarni operatorlarsiz ijaraga berish, maishiy jihozlar va shaxsiy ehtiyoj buyumlarini ijaraga berishdan olingan daromad miqdori sifatida aniqlanadi.

Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmi bu – kompyuterlar va periferik uskunalarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish kommunikatsiya uskunalari (fakslar, radiostansiyalar)ni ta'mirlash, maishiy elektronika (radiopriyomniklar va televizorlar), uy va bog' uchun uskunalar (gazon o'ruvchi va havo (dam) beruvchi mashina), poyabzal va charm buyumlar, mebel va uy jihozlari, kiyim va aksessuarlar, sport anjomlari, musiqa asboblari va boshqa shaxsiy buyumlar va maishiy tovarlarni ta'mirlashdan tushgan tushum miqdoridir.

Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi shartnomada nazarda tutilgan talablarga muvofiq loyihalar, izlanishlar, konstruktorlik va texnologik ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar, shuningdek, qurilish ishlari ustidan nazorat va boshqa injenerlik xizmatlarining qiymatini o'z ichiga oladi.